



HAKIMUL UMMA ASHROF ALI TAHONAVIYNING MASHHUR SHOGIRD VA IZDOSHLARI

Badriddinova Risolat

Toshkent Xalqaro Islom Akademiyasi Islomshunoslik
Magistratura yo'nalishi 2-kurs

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11118510>

ARTICLE INFO

Received: 27th April 2024

Accepted: 29th April 2024

Published: 6th May 2024

KEYWORDS

Mavlono Tahonaviy, shogirdlari, xalq, maslahatlar, asarlari, hayoti, tajvid ilmi

ABSTRACT

Mavloni Tahonaviyning shogird va izdoshlari – hozirgi Janubiy Osiyoning olimlaridan iborat avlod desak, adashmagan bo'lamiz. Uning izdoshlari Janubiy Osiyo mintaqasining barcha yerlarida yashab kelishgan va imkon qadar insonlar xizmatida bo'lishgan. Uning ba'zi talabalri undan bevosita ilm olib, uning ko'rsatma va tavsiyalari bilan kitob yozishgan. Ba'zi talabalari bo'lsa uning dars xalqalariga qo'shib, ilmidan bahramand bo'lishgan. Ko'pchiliklari unga suluk bay'atini berishgan va undan nafsni poklash, solih amallar borasida maslahatlar olishgan. Ushbu maqolada biz Mavlono Tahonaviyning mashhur shogirdlari va izdoshlarining hayoti va ijodi bilan qisqacha tanishib o'tamiz.

Kirish: Zafar Ahmad ibn Latif Usmoniy Tahonaviy. Hijriy 1410-yil Robiul avvalning 13-sanasi Devbandga yaqin uyda tavallud topgan. Uning onasi 3 yoshligida olamdan o'tgan. Tarbiyani buvisidan olgan. 5 yoshga to'lganida Devband ustozlaridan Qur'on ta'limini olgan. So'ng 7 yoshida urdu va fors kitoblarni o'qishga kirishgan.

Bu olim juda taqvoli bo'lgan. Har doim zikrda va nafl ibodatlar bilan mashg'ul bo'lgan. Ashrof obodda Pokistonda vafot etgan.

Bu olimning ilm yo'li Devbandda Tohana qishlog'iga tog'asi Ashrof Ali Tahonaviy huzurlariga borganda boshlangan. U u yerda ustozidan sarf, nahv, odob va tajvid ilmlarini olgan. So'ng tog'asi «Bayanul Qur'on» asari bilan mashg'ul bo'lganda, Kanfur shahriga yo'l oladi va o'sha yerdagi Jamiul ulum madrasasiga kiradi. (Bu madrasaga Ashraf Ali Tahonaviy asos solgan) Shayx Muhammad Is'hoq Bardanoviydan ta'lim oladi.

Uning shoh asarlaridan «E'laus sunan» asari. Bu kitobda hanafiy mazhabini hadislar bilan ochiq lab bergan. «Ahkamul Qur'on» asari Ashrof Ali Tahonaviyning maslahati bilan yozilgan 2ta jilddan iborat kitobdir.

Muhammad Shafi'y. Hijriy 1314-yilda 20-Sha'bonda tug'ilgan. Tasavvuf ahlidan bo'lgan. Shayxul hindga suluk bay'atini bergan. Bu kishing vafotidan so'ng bay'atini Hakimul ummaga yangilagan va 23 yil u zotning suhbatidan bahramand bo'lgan. Hijriy 1396-yil vafot etdi. Uning janozasiga qarib 5000 kishi ishtirok etdi.

Muhammad Shafi'y o'z ilm yo'lini Devbandda boshladi va 15 yil shu makonda ilm bilan mashg'ul bo'ldi. Anvar Shoh Kashmiriyga Buxoriy, Termiziy, Shamoil va Ilal kitobini o'qib bergan. Ustozi

Shayx muftiy Azizur Rohmanga Molikning « Muvatto» asarini o'qib bergan. Shayx Azizur Rohmanning vafotidan so'ng u fatvo kengashining raisi bo'lib faoliyat yuritdi (1350-1362). Shu yillar davomida 4000dan oshiq fatvolar chiqardi va ularni «Imdadul muftiyn» asariga jamladi. (38-bet)

Asarlari:

1. Maoriful Qur'on. 8 jilddan iborat urdun tilidagi kitob.
2. Xotmun nubuvva. Anvar Shoh Kashmiriyning taklifi bilan yozilgan kitob. Bu kitobda barcha shubhadagi firqalarga qat'iy dalillar bilan raddiyalar keltirilgan.
3. Javahirul fiqh. Fiqh kitoblarida uchramaydigan yoki tafsiloti kam berilgan masalalar yozilgan kitob.
4. Ahkamul Arodi (yerlar hukmlari). Bu yerda sultonliklar, amrliklar, mamluklar yerlarining hukmlari haqida bayon qilingan.

Muftiy Muhammad Shofe' (Dorululum Devbandning bo'linishidan oldingi vaqtdagi bosh muftiy, Pokistonga hijratlaridan keyin bugungi kundagi Pokistonda eng yirik diniy ta'lim madrasasi Dorululum Karachi asoschilaridan, shu bilan birga Pokistonning bosh muftiysi). Muftiy hazrat diniy mashg'ulotlari ko'p bo'lishiga qaramay, shayxi Hakimul umma Ashraf Ali Tahonaviyning ta'kidlariga binoan tasnif va ta'lif silsilasini hamisha joriy qilib turdi. U kishining katta-kichik kitoblari hammasi bo'lib bir yuz oltmishdan oshadi. U kishi islomiy ilmlarning deyarli barcha yo'nalishlarida kitob, risola va maqolalar yozdi. Lekin ularning orasida «Islomda yerlar nizomi», «Yangi asboblarning shar'iy hukmlari», «Odobun-Nabiy sollalloxu alayxi vasallam», «Ahkomi haj», «Sunnat va bid'at», «Xatmi-nubuvva», «Dasturi Kur'oniy», «Siyрати Xotamil an- biyo», «Alomoti Qiyomat», «Nuzuli Masix», «Kashkul», «Javohirul fikx», «Maqomi sahoba», «Mas'alai sud», «Majolisi Hakimul umma», «Ahkumul Qur'on», «Fatovo Dorul ulum Devband», «Tafsiri Maoriful Kur'on» kitoblari ilmiy dunyoning shox asarlaridir.

«Tafsiri Maoriful Qur'on» bir necha yil davomida Pokiston radiosidan efirga uzatib kelingan. Keyinchalik bu eshittirishlar matni ba'zi to'ldirishlar bilan sakkiz jildlik kitob shaklida chop etildi. Bu tafsir haqida Islom olamining ulug'lari o'z tahsinlarini izhor qilganlar. Hazrat Zafar Ahmad Usmoniy shunday degan: «Muftiy xazrat bu tafsirni yozish bilan mufassir olimlarga buyuk bir ehson qildilar».

Jamil Ahmad Tahonaviy- hijriy 1322-yil 1-shavvolda Tahona qishlog'ida tug'ilgan. Bu kishi Ashrof Ali Tahonaviyning kuyovi bo'lib, Mavlononing qiziga uylangan.

Boshlang'ich ilmni Tahona qishlog'idagi maktabda olgan, so'ng o'rta maktabni Jalolobodda olib Mazphirul ulum jomisida diniy ilmlarni mukammallashtirgan. Bu jomeni hijriy 1342-yil tamomlagan. Uning kotta ustozlaridan Xolil Ahmad Saharnufuriy bo'lgan. Jomeni tamomlagach shu o'quv yurtida fiqh va hadisdan dars bergan. Arab she'riyatida ham juda mohir bo'lgan, u nafaqat arab tilida balki urdu va fors tillarida ham ijod qilgan. 1360-yilda jomedan ketib, Fatvo bo'limida 4 yil ishlagan, shu sabab u o'z asrining buyuk faqihlaridan bo'lgan. Ashrof Ali Tahonaviyning umrining oxirgi davrlarida uning xizmatida bo'lgan.

Uning shox asarlari:

- Jamilul fatava;
- Da'vatun ila tijaro;
- Hilyatul lihya;
- Vujubu haddir rojmi;
- Ahkamul Qur'on

Muhammad Idris ibn Hafiz Muhammad Ismoil Kandehlaviy 1318/1900-yil tug'ilgan. Boshlang'ich ilmni o'z qishlog'ida olgan. 9 yoshga yetganda Qur'onni to'liq yod olgan. Kotta ustozlaridan Ashrof Ali Tahonaviy, Xolil Ahmad Saharnufuriy, muhaddis Anvar Shoh Kashmiriy bo'lishgan.

Devband shahrida 9 yil ijod qilib Obod shahriga ko'chgan so'ng yana Devband madrasasiga qaytib hadisdan dars bergan bu yerda 10yil yashab Pokistonga Abbosiya jomeasida hadisdan dars bergan va shu yerda vafotigacha qolgan.

Asarlari:

- Tafsir maorifil Qur'an;
- Tuhfatul Qori fi halli mushkilatil Buxoriy;
- Aqoidul islam;
- Usulul islam;
- Xotmun nubuvva;
- Muqoddima Sohihul Buxoriy;
- Sharhu Alfiya iroqiy (2 juz);
- Sharhu tafsiry Bayzoviy.

Sulaymon Nadaviy (1884-1953)- Safar oyida 1320 yilda ziyoli va ilmli oilada tavallud topgan. Dastlabki ta'limni otasi va Sayid Abu Habib Naqdhbandiydan olgan, so'ng Patna shahrida Muhyiddin Muhibbiydan she'riyat, odob ilmlarini, shayx Falvaroviydan mantiq ilmni olgan. Bayhar viloyatidagi Imdodiya madrasasida shayx Husayn Devbandiydan «Hidoya» asarini o'qigan.

Hadis ilmida juda mohir bo'lgan, hadis, sunnat kitoblari bilan doim mashg'ul bo'lgan.

Uning mashhur asarlaridan:

- Siyrotun nabiy sollallohu alayhi vasallam bu kitobni ustozi Shibli Nu'moniy boshlagan va shogirti davom etgan. Bu kitob 7ta juzdan iborat.
- Ardul Qur'on arablarning siyosiy, tarixiy, madaniy qarashlarini va isroil, rum, yunonlarning asl tarixi haqida xabar beradi. Bu kitob Muhammad Akrom Nadaviy tomonidan arab tiliga tarjima qilingan.
- Ummul mu'miniyn Oisha (r.a.) siyratlari;
- Hayatu Imam Molik.

Shayx Ashrof Ali Tahonaviyga suluk bay'atini bergan.

Tahonaviyning izdoshlari va talabalarining ko'pligi, bu uning zamonasining naqadar buyuk olim bo'lganligini ko'rsatib beradi. Ba'zi insonlar uning bitta darsida qatnashish, u bilan ko'rishish uchun uzoq-uzoq masofalarni bosib o'tishgan. Uning xos talabalari o'z zamonasining buyuk olimi, yurtining faxriga aylanishgan. Alloh ularning barchasidan rozi bo'lsin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmad Husayn. Juhud talamiz Ashrof Ali Tahonaviy. – Iordaniya hoshimiylar davlati, Nashr qilinmagan doktorlik ishi, 2010.
2. Muhammad Shofe' Usmoniy. Majolisi hakimul umma. – T: Hilol nashr, 2022.
3. Muhammad Rohmatulloh an-Nadaviy. Ashrof Ali Tahonaviy shayxul umma. – Damashq: Darul Qomar, 2006.
4. Xon, Munshi Abdurrahmon (1992). Tehrik va Pokiston va Ulamo va Rabboniy (urdu tilida). Pokiston: Islom yetakchiligi.

5. Naeem, Fuad (2009), "Thanvi, Mavlona Ashraf 'Ali", The Oxford Encyclopedia of Islamic World, Oksford universiteti nashriyoti, doi: 10.1093/acref/9780195305135.001.0001, ISB5039-noyabr 2022
6. Svanberg, Ingvar; Vesterlund, Devid (2012 yil 6 dekabr). Arab dunyosidan tashqarida Islom. Routledge. p. 224. ISBN 978-1-136-11322-2.
7. Jetly, Rajshri (2012 yil 27 aprel). Mintaqaviy va global siyosatda Pokiston. Teylor va Frensis. 100-1-betlar 156-. ISBN 978-1-136-51696-2.
8. Robinson, Frensis (2000). "Islom va musulmon separatizmi." Xatchinsonda, Jon (tahr.). Millatchilik: siyosatshunoslikdagi tanqidiy tushunchalar. Entoni D. Smit. Teylor va Frensis. 100-1-betlar 929-930. ISBN 978-0-415-20112-4.

